


**“TASDIQLAYMAN”**  
“O‘zatom” agentligi  
direktori  
  
**A. Axmedxadjayev**  
2024-yil “1”-iyul

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligining  
2024-yil II yarim yillik  
ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar va tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Mas’ul ijrochilar</b>
<b>I. “O‘ZATOM” AGENTLIGINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI QARORLARIGA MUVOFIQ VAZIFALARI</b>			
<b>1. O‘zbekiston Respublikasining davlat dasturlari va strategiyalarini amalga oshirish</b>			
1.	2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston-2030” strategiyasida keltirilgan vazifalar va topshiriqlarni amalga oshirish doirasida “O‘zatom” agentligi faoliyatiga tegishlilik bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil iyul - dekabr	Axmedxadjayev A.I., “AES Direksiyasi” DK (Amanov O.T.), “MMFI” MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.), boshqarma va bo‘limlar boshliqlari
2.	Davlat dasturining amalga oshirilishi bo‘yicha “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakati bilan birgalikda har oyda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritish.	2024-yil iyul – dekabr (har oy)	Xudoyberdiyev M.E., Bahodirova M.A.

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer qa'ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 24-maydagi PF-79-son Farmoni ijrosi doirasidagi tadbirlar</b>			
3.	"O'zatom" agentligining ilgari qabul qilingan barcha normativ-huquqiy hujjalarini qayta ko'rib chiqish va yangilash.	2024-yil iyul-dekabr	Boshqarma va bo'limlar boshliqlari, "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.)
4.	Agentlikning rasmiy veb-saytiga, shuningdek, mavjud ijtimoiy tarmoqlarga Agentlikning yangi nomi bilan bog'liq o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlash.	2024-yil iyul	Ravshanova G.S., Simbal G.A.
5.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini joylashtirish va idoralararo kelishish uchun Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimiga (project.gov.uz) kirishni (respublika ijroiya organi sifatida) tashkil etish choralari ko'rish.	2024-yil iyul	Simbal G.A.
6.	Agentlikning nomi va rekvizitlari aks ettirilgan muhr hamda boshqa muhrlarni belgilangan tartibda almashtirilishini shuningdek, eski nomi tushirilgan davlat muhri va boshqa muhrlarni belgilangan tartibda yo'q qilinishini ta'minlash.	2024-yil iyul	Madaminova M.A., Safarov I.B.
<b>3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Atom energiyasi agentligining faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 24-maydagi PQ-188-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar</b>			
7.	Qarordan kelib chiqib qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'kazish hamda xatlov natijalariga ko'ra tegishli qaror loyihalarini ishlab chiqilishi hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlash.	2024-yil iyul	Axmedxadjayev A.I., Xikmatullayev B.F., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
8.	Yangi tasdiqlangan faoliyat yo'nalishlarini hisobga olgan holda tuzilmaviy bo'linmalar to'g'risidagi Nizomni (Agentlikning yangilangan	2024-yil iyul-dekabr	Boshqarma va bo'limlar boshliqlari, Xikmatullayev B.F.,

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	tuzilmasiga muvofiq) qayta ko'rib chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritish. Shuningdek, Tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi yangilangan Nizomni hisobga olgan holda mutaxassislarning lavozim yo'riqnomalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etish.		Simbal G.A.
9.	Belgilangan xodimlarning umumiy cheklangan sonini hisobga olgan holda Agentlikning yangilangan tuzilmasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish.	2024-yil iyul-dekabr	Simbal G.A., Madaminova M.A.
10.	Agentlikning tasdiqlangan yangi tuzilmasi va shtat jadvalini hisobga olgan holda xodimlarning mehnat shartnomalariga, shuningdek mehnat daftarchalariga o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlash.	2024-yil iyul-sentabr	Simbal G.A.
11.	Xodimlarning xizmat guvohnomalarini o'rnatilgan tartibda almashtirilishini ta'minlash.	2024-yil iyul	Simbal G.A., Madaminova M.A.
12.	Tibbiyot sohasida yadroviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, ma'lumotlar yig'ish va O'zbekiston Respublikasi hududiga yadroviy tibbiyot taxnologiyalarini tadbiq qilish ishlarini tahlil qilish uchun tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amaliy ishlarni bajarish.	2024-yil iyul - dekabr	Xudoyberdiyev M.E.
13.	Qishloq xo'jaligi va oziq ovqat mahsulotlarini yadroviy texnologiyalar yordamida qayta ishlab ularni saqlash muddatini uzaytirish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, ma'lumotlar yig'ish va O'zbekiston Respublikasi hududiga yadroviy taxnologiyalarini qo'llanilish holatini o'rganish hamda amalga oshirilgan ishlarini tahlil qilish uchun tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ushbu sohadagi istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va amaliy ishlarni bajarish.	2024-yil iyul - dekabr	Xudoyberdiyev M.E.
14.	Kichik quvvatli AES qurilish loyihasi shartnomasining tijorat guruhi ishini muvofiqlashtirish.	2024-yil iyul - dekabr	Kamayeva R.R., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.)

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 – 2029 yillarda O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 7-fevraldagi PQ-4165-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar</b>			
15.	Atom elektr stansiyasining (AES) faoliyatini atrof-muhitga ta'sirini baholash ishlari doirasida AESda loyihadan tashqari jiddiy avariya paytida radionuklidlarning tarqalishini prognoz qilish bo'yicha hisob kitoblarni amalga oshirish hamda atrof-muhitga mumkin bo'lgan ekologik xavfli ta'sir zonalarini aniqlash.	2024-yil iyul - dekabr	Xudoyberdiyev M.E., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.)
16.	Kichik quvvatli atom elektr stansiyasining konturidagi o'ta muhim iste'molchilari suv ta'minoti tizimining ishonchli ishlashini ta'minlash maqsadida, mavjud suv manbalarining hozirgi holatini, suv hajmini va loyihada nazarda tutilgan va og'ir loyihadan tashqari avariyalarda suv iste'molini hisoblash bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	2024-yil iyul - dekabr	Xudoyberdiyev M.E., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.)
17.	Yadroviy qurilmalarni maydonchada joylashtirishga ruxsat beruvchi hujjatni olish uchun Atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga soluvchi maxsus vakolatli organga taqdim etadigan zarur hujjatlarni tayyorlash. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yilning 28-martdagi 141-son qarori "Yadroviy qurilmani va (yoki) saqlash punktini joylashtirish uchun maydonchadan foydalanishga ruxsatnoma berish tartibi to'g'risidagi Nizomi"ga muvofiq hujjatlar to'plamini tayyorlash.	2024-yil iyul - dekabr	"AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), Kamayeva R.R., Xikmatullayev B.F., Xudoyberdiyev M.E.
18.	AESni qurish loyihasiga kiritiladigan investitsiyalarni iqtisodiy baholash texnik topshiriqlarini o'rnatilgan tartibda ishlab chiqilishini ta'minlash.	2024-yil iyul - dekabr	Yo'ldoshev R.K., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.)
19.	AES va yadro infratuzilmasi uchun xodimlarni tayyorlash dasturlarini, shu jumladan xorijiy davlatlarda mutaxassislar malakasini oshirish dasturlariga muvofiq xodimlarni tayyorlash hamda malaka oshirish jarayonini tashkil etish.	2024-yil iyul - dekabr	"AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), Xudoyberdiyev M.E., Asadov A.I.

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
20.	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Ulug'bek shaharchasi, Robiyaxonim ko'chasida joylashgan bolalar ochiq sportiga mo'ljallangan yer maydonida salohiyatli investor bilan davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy mini-futbol, badminton, basketbol, yurish va "Workout" (mahalla va ko'cha fitnesi) sport turlari bilan shug'ullanish maydonlari hamda maishiy binolar qurish loyihasi bo'yicha davlat xususiy-sherikchilik shartnomasini rasmiylashtirish.	2024-yil iyul - dekabr	Kamayeva R.R., Safarov I.B., Yo'ldoshev R.K., Madaminova M.A.
<b>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining yadro-energetika dasturi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 16-oktabrdagi PQ-4492-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar</b>			
21.	"O'zatom" agentligi tayanch oliy ta'lim muassasalari konsorsiumi ta'lim va ilmiy muassasalari moddiy-texnika va o'quv-laboratoriya bazasini yaratish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish.	Doimiy ravishda	"MMFI" MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.), Xudoyberdiyev M.E.
22.	"MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filialiga 2024-2025-o'quv yili uchun qaror loyihasini ishlab chiqish va Vazilar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil iyul - dekabr	"MMFI" MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.), Xudoyberdiyev M.E.
23.	"MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining Toshkent shahridagi filialiga 2024-2025-o'quv yili uchun qabul jarayonlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil iyul - dekabr	"MMFI" MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.), Xudoyberdiyev M.E.
24.	Toshkent shahridagi "MMFI" milliy tadqiqot yadro universitetining filiali faoliyatini rivojlantirish.	Doimiy ravishda	"MMFI" MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.), Xudoyberdiyev M.E.
25.	"O'zatom" agentligi va "AES qurilishi direksiyasi" DKning mutaxassislarini AES qurilayotgan davlatlarga amaliy mashg'ulotlardan o'tish uchun yuborish, tashkiliy masalalarni hal qilish, tegishli hujjatlarni tayyorlash.	2024-yil iyul - dekabr	"AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), Xudoyberdiyev M.E., Asadov A.I.

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2030-yillarda "Navoiyuran" davlat korxonasida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 14-iyuldagi PQ-319-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar</b>			
26.	Rossiya Federatsiyasining "MMFI" milliy tadqiqot yadro universiteti hamda uning Toshkent shahridagi filialini atom energetikasi va yadro texnologiyalari sohasida ta'lim olib qaytgan yoshlarni "Navoiyuran" davlat korxonasiga ishga joylashtirish.	2024-yil iyul - dekabr	Axmedxadjayev A.I., Xudoyberdiyev M.E., "MMFI" MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.), Simbal G.A.
<b>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qarori ijrosi doirasidagi tadbirlar</b>			
27.	Iqtisodiyot tarmoqlari tashkilotlari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalar asosida ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish doirasida 2024-yil uchun tasdiqlangan 8 ta loyihani amalga oshirish.	2024-yil iyul – dekabr (har oy)	Xudoyberdiyev M.E., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), "MMFI" MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.)
28.	Iqtisodiyot tarmoqlari tashkilotlari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalar asosida ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish doirasida 2025-yil uchun 11 ta loyihani ishlab chiqish hamda Innovatsion rivojlanish agentligi bilan o'rnatilgan tartibda kelishish.	2024-yil dekabr	Xudoyberdiyev M.E., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), "MMFI" MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.)
<b>II. "O'ZATOM" AGENTLIGINING USTUVOR VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR</b>			
<b>1. Atom energetikasi sohasida normativ-huquqiy bazani rivojlantirish va normativ hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga kiritish</b>			
29.	O'zbekiston Respublikasi yadro xavfsizligi sohasidagi xalqaro konvensiyalarga qo'shilgandan keyin ularning qoidalarini O'zbekiston Respublikasi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga implementatsiya qilish.	2024-yil iyul – dekabr (xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan holda)	Yuridik bo'limi Xikmatullayev B.F., boshqarma va bo'limlar boshliqlari

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
30.	Atom stansiyasi uchun sifatni ta'minlashning umumiy dasturi (09-01:2024, 2-tahrir) loyhasini atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq ko'rib chiqish va kelishish.	2024-yil iyul	Xikmatullayev B.F., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
31.	Tasdiqlangan "O'zatom" agentligida 2024-yilda normativ hujjatlarni ishlab chiqish dasturi" doirasida o'rnatilgan tartibda normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish.	2024-yil iyul - dekabr	Xikmatullayev B.F., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
32.	Normativ hujjatlarning fondini shakllantirish va yuritish (ГОСТ, O'z DSt, hujjatlari va boshqalar), XAEA normalari va qoidalarining elektron reestrini yaratish.	2024-yil iyul - dekabr	Xikmatullayev B.F., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
<b>2. AES qurilishi loyhasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar</b>			
33.	<p>O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida 2018-yil 7-sentabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi hududida atom elektr stansiyasini qurishda hamkorlik to'g'risidagi bitimga o'zgartirishlar kiritish haqida <b>bayonnoma</b>:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bayonnoma kuchga kirishi zarur bo'lgan davlat ichki tartib-taomillarini bajarish;</li> <li>2. Bayonnoma kuchga kirishi zarur bo'lgan davlat ichki tartib-taomillari O'zbekiston tomonidan bajarilganligi to'g'risida Rossiya tomoniga bildirishnoma yuborish;</li> <li>3. Bayonnoma kuchga kirganligi to'g'risida Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va vakolatli idoralarga yozma xabarnoma yuborish;</li> <li>4. Bayonnoma qoidalarini amalga oshirish bo'yicha ichki chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash;</li> <li>5. Rejani o'z vaqtida va to'liq amalga oshirishni ta'minlash;</li> </ol>	<p>2024-yil</p> <p>1-sentabr</p> <p>Prezidentning tegishli qarori e'lon qilingandan so'ng besh ish kuni ichida</p> <p>Bayonnoma kuchga kirganidan so'ng besh ish kuni ichida</p> <p>belgilangan muddatlarda</p> <p>10-sentabr, 10-dekabr</p>	<p>Axmedxadjayev A.I., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), boshqarma va bo'limlar boshliqlari</p>

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	6. Hujjat qoidalarining bajarilishi natijalari to'g'risida Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga tegishli hisobot, Tashqi ishlar vazirligiga ma'lumot taqdim etish.		
34.	O'zbekiston Respublikasida kam quvvatli atom elektr stansiyasini loyihalashtirish, yetkazib berish va qurish bo'yicha kontrakt: 1. Hujjat bo'yicha hamkorlikning aniq yo'nalishi va tadbirlari ko'rsatilgan rejani ishlab chiqish va qabul qilish; 2. Shartnoma ijrosi bo'yicha ma'lumotni Vazirlar Makamasiga kiritib borish.	2024-yil  Kelishuv asosida  10-sentabr, 10-dekabr	Axmedxadjayev A.I., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), boshqarma va bo'limlar boshliqlari
35.	Kichik quvvatli atom elektr stansiyasini loyihalashtirish, yetkazib berish va qurish bo'yicha kontraktni imzolash: 1. "Rosatom" davlat korporatsiyasi vakillarining qurilish maydonchasiga tashrifini tashkil etish; 2. Kontraktni ro'yxatdan o'tkazish; 3. Pudrat tashkiloti xodimlarini qurilish maydonchasiga jalb qilish va qurilish-montaj ishlarini boshlash; 4. Kichik quvvatli atom elektr stansiyasini qurish loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini tayyorlash va kelishish; 5. Loyihani amalga oshirish.	2024-yil  iyun  iyul-avgust avgust-oktabr  avgust-sentabr  Belgilangan muddatlarda	Axmedxadjayev A.I., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), boshqarma va bo'limlar boshliqlari
36.	AES va uning tashqi infratuzilma obyektlarini loyihalashtirish, shu jumladan, AES quvvatini taqsimlash sxemalari texnik topshiriqlari loyihasini ishlab chiqish va uning tashqi infratuzilma obyektlarini loyihalashtirishga jalb etilgan O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, "O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlar" AJ, "Средазэнергопроект" AJ, "UzAssystem" va boshqalar bilan birga loyihalashtirish.	2024-yil iyul - dekabr	Xudoyberdiyev M.E., Kamayeva R.R., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.)



№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
37.	AESning atrof-muhitga ta'sirini baholash hisoboti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududlarida jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish dasturiga muvofiq ishlarini tashkil etish.	Kelishilgan holda	"AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), Ravshanova G.S., Xudoyberdiyev M.E.
<b>3. Xalqaro atom energiyasi agentligi (XAEA) bilan hamkorlik va o'zaro aloqalar</b>			
38.	2024-2025-yillarda XAEA tomonidan tasdiqlangan texnik hamkorlik dasturida belgilangan tadbirlarni o'tkazish.	Belgilangan jadvalga muvofiq	Asadov A.I., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
39.	Respublikaning milliy yadroviy infratuzilmasini rivojlanishini kompleks baholash bo'yicha hisobotiga oid ishlab chiqilgan "Ish reja" (Integrated Work Plan/Action plan)da quydagi belgilangan tadbirlarni o'tkazish: 1. Yadro obyektlari uchun Egasi/Operator (Owner/Operator) tomonidan axborot xavfsizligi tizimini ishlab chiqish bo'yicha seminar; 2. Qurilish nazorati bo'yicha milliy seminar (texnik nazorat, loyiha qarorlari monitoringi, qurilish sifati va loyiha risklarini boshqarish); 3. Qurilish nazorati bo'yicha mulkdor-operatorning ilmiy tashrifi; 4. Narx belgilash, nazorat qilish bo'yicha ilmiy tashrif qurilish vaqtidagi xarajatlar va shartnoma munosabatlari; 5. Jamoatchilik muhokamasi va xabardorlik bo'yicha seminar.	2024-yil yanvar – iyun (kelishilgan holda)	Asadov A.I., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
40.	XAEA treninglarida (online va offline tarzda) ishtirok etish.	2024-yil iyul - dekabr	Asadov A.I., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
<b>4. Atom energetikasi sohasida boshqa xalqaro tashkilotlar va kompaniyalar bilan hamkorlik qilish</b>			
41.	"O'zatom" agentligi va China National Nuclear Corporation Ltd. CNNC (Xitoy Xalq Respublikasi) o'rtasida o'zaro anglashuv hamkorlik Memorandumi imzolash jarayonini tashkil etish. Ma'muriy va ilmiy-texnikaviy kadrlar malakasini oshirish, ikki mamlakat delegatsiyalarining	2024-yil iyul	Asadov A.I., Xudoyberdiyev M.E., Kamayeva R.R.

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
	o'zaro tashriflarini tashkil etish, Xitoylik hamkorlarning mahalliy sanoat ko'rgazma va yarmarkalarida ishtirok etishiga ko'maklashish, qo'shma forumlar, konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish.		
<b>5. Atom texnologiyalari axborot markazini rivojlantirish va atom energetikasini ommalashtirish.</b>			
42.	“O'zatom” agentligi Atom texnologiyalari axborot markazi (ATAM)da uchrashuvlarni tashkil qilish va o'tkazish	2024-yil iyul - dekabr	Ravshanova G.S., Xudoyberdiyev M.E., “MMFI” MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.) boshqarma va bo'limlar boshliqlari
43.	“O'zatom” agentligi Atom texnologiyalari axborot markazi (ATAM)da aholining yadro fani va texnologiyalari sohasidagi ilmiy-texnik bilimlarini oshirish va atom energetikasini ommalashtirish.	2024-yil iyul - dekabr	Ravshanova G. S., Xudoyberdiyev M.E., “MMFI” MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.) boshqarma va bo'limlar boshliqlari
44.	Talabalar, maktab o'quvchilari va respublikamizning boshqa soha vakillari uchun Atom texnologiyalari axborot markazi bo'ylab ekskursiyalar, xalqaro ilmiy hamjamiyatning malakali mutaxassislari bilan birgalikda ilmiy-ommabop ma'ruzalar, interaktiv va mahorat darslari, tok-shoular tashkillashtirish.	2024-yil iyul - dekabr	Ravshanova G. S., Xudoyberdiyev M.E., “MMFI” MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.) boshqarma va bo'limlar boshliqlari
45.	Yoshlarni kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish va shu yo'nalish bo'yicha universitetlar bilan hamkorlik qilish hamda talabalar, maktab o'quvchilari uchun “Fan va atom festivali” tashkil qilish.	2024-yil iyul - dekabr	Ravshanova G.S., Xudoyberdiyev M.E., “MMFI” MTYU filiali (Abdukamilov Sh.Sh.)

<b>№</b>	<b>Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
			boshqarma va bo'limlar boshliqlari
46.	Maktab o'quvchilari uchun Butunjahon fan kuniga bag'ishlangan Global Atomic Quiz 2024 loyihasini amalga oshirish.	2024-yil iyul - dekabr	Ravshanova G.S., Xudoyberdiyev M.E.
<b>6. Sohaviy faoliyat bo'yicha mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatish uchun tayyorlanadigan xabar, ma'lumot, sharh va boshqa axborot-tahliliy materiallar tayyorlash.</b>			
47.	Jamoatchilik eshituvi uchun tarqatma materiallar namunalarini (eskizlarini, flayer, stand, taqdimot, broshyuralar va h.k.) tayyorlash va rahbariyat tomonidan tasdiqlash.	2024-yil iyul - dekabr	Ravshanova G.S., Xudoyberdiyev M.E., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
48.	“O‘zatom” agentligi faoliyati va unda amalga oshirilayotgan yangiliklar borasida ommani tanishtirish, va ATAM faoliyatida foydalanish uchun bukletlar, lifletlar, broshyuralar, agentlik brendi bilan chop qilinadigan kitoblar, videolar, flayerlar, videoroliklar hamda ma'lumot beruvchi materiallar tayyorlash va rahbariyat tomonidan tasdiqlash.	2024-yil iyul - dekabr	Ravshanova G.S., Xudoyberdiyev M.E., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
49.	“O‘zatom” agentligining Brend Bookini ishlab chiqish.	2024-yil iyul - dekabr	Ravshanova G.S., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
<b>7. Raqamli transformatsiya va axborot xavfsizlikni ta'minlash</b>			
50.	“O‘zatom” agentligining ichki ma'lumotlarini elektron shaklga o'tkazish va yagona ma'lumot bazasini rivojlantirish.	2024-yil iyul - dekabr	Simbal G.A., Bahodirova M.A.

<b>№</b>	<b>Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
51.	Korporativ elektron pochta va server uskunalari uzluksiz ishlashini ta'minlash, shuningdek, boshqaruv tizimlari va "O'zatom" agentligi binosiga kirishni nazorat qilish.	Doimiy ravishda	Simbal G.A. boshqarma va bo'limlar boshliqlari
52.	"O'zatom" agentligi va "AES qurilishi Direksiyasi" DKda axborot xavfsizligi buzilishi holatlarini tekshirish va tahlil qilish.	Doimiy ravishda	Simbal G.A., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
<b>8. Korrupsiyaga qarshi kurashish</b>			
53.	Agentlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan "O'zatom" agentligi tomonidan xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish uchun axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va o'quv seminarlarni o'tkazish.	2024-yil iyul - dekabr	Simbal G.A., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.)
<b>9. Ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha yagona va uzluksiz "texnologik zanjir"ni amalga oshirish, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash</b>			
54.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlar ijrosini "edo.ijro.uz" yagona elektron tizimi orqali nazorat qilib borish va ma'lumotlarni kiritish.	Doimiy	Bahodirova M.A., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), boshqarma va bo'limlar boshliqlari
55.	O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari tegishliligi bo'yicha bajarilishining natijalari to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot berish.	Doimiy	Bahodirova M.A., "AES Direksiyasi" DK (Amanov O.T.), boshqarma va bo'limlar boshliqlari
56.	Agentlikda jismoniy va yuridik shaxslarni yoki ularning vakillarini qabul qilish, hamda ishonch telefonidan kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, har bir murojaatga to'liq va o'z vaqtida javob xatlari berilishini nazorat qilish.	Doimiy	Bahodirova M.A., boshqarma va bo'limlar boshliqlari

№	Amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar va tadbirlar	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>10. "O'zatom" agentligi mutaxassislarini kasbiy kompetensiyasini uzluksiz ravishda oshirish</b>			
57.	XAEA treninglarida ishtirok etganligi natijalari bo'yicha "O'zatom" agentligi va "AES qurilishi direksiyasi" DK xodimlariga taqdimot qilish.	2024-yil iyul - dekabr	Asadov A.I., boshqarma va bo'limlar boshliqlari
58.	American Councils for International Education C5+ONE dasturi bo'yich ingliz tili o'quv darslariga qatnashish.	2024-yil iyul - dekabr	Asadov A.I., boshqarma va bo'limlar boshliqlari